



TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

# ILMIY AXBOROTLARI

ILMIY-NAZARIY JURNALI

SCIENTIFIC-THEORETICAL JURNAL

## SCIENTIFIC BULLETIN

OF THE TASHKENT STATE PEDAGOGICAL UNIVERSITY

НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ

## НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК

ТАШКЕНТСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО  
ПЕДАГОГИЧЕСКОГО УНИВЕРСИТЕТА



# 1/2024

**OLIIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARIDA MILLIY  
QADRIYATLARNI RIVOJLANTIRISH – IJTIMOIIY PEDAGOGIK,  
PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

**Nurbayeva Xabiba Botirovna**

Toshkent tibbiyot akademiyasi kafedrası o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Maqolada talaba yoshlarda milliy qadriyatlarning pedagogik psixologik xususiyatlari va yoshlarga yaratilayotgan sharoitlar va ulardan foydalanish to'g'risida fikir bildirilgan.

**Kalit so'zlar:** Yangi O'zbekiston, fuqarolik, shaxs, pedagogik –psixologik xususiyatlari milliy qadriyat, komil inson, buyuk allomalar, omillar, ta'lim-tarbiya.

**DEVELOPMENT OF NATIONAL VALUES IN STUDENTS OF  
HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS-SOCIAL PEDAGOGICAL,  
PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS**

**Annotation.** In the article, the student expressed his opinion on the pedagogical psychological peculiarities of national values in young people and on the net of sharoirs and their use being created for young people.

**Key words:** New Uzbekistan, citizenship, personality, pedagogical – psychological characteristics of national value, perfect man, great scientists, factors, training education.

**РАЗВИТИЕ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ У СТУДЕНТОВ  
ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ-СОЦИАЛЬНО-  
ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ, ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ**

**Аннотация.** В статье студент высказал свое мнение о педагогико-психологических особенностях формирования национальных ценностей у молодежи и о сети форумов и их использовании, создаваемых для молодежи.

**Ключевые слова:** Новый Узбекистан, гражданство, личность, педагогико–психологические характеристики национальной ценности, совершенный человек, великие ученые, факторы, обучающее образование.

Daraxtdan meva olaman desang uni nixollik davridan parvarish qil.

Mamlakatimiz mustaqillika erishgandan keyin milliy qadriyatlarni tiklash, jamiyat ma'naviy hayotini yaxshilash, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy rivojlantirish asosiy vazifa etib belgilandi. Mazkur vazifalar jamiyat oldida turgan masalalarni hal etishda muhim o'rin tutdi. Ayniqsa, dunyo miqiyosida sodir bo'layotgan o'zgarishlar, globallashuv jarayonlarining kuchayishi va ularning yoshlar ongiga ta'siri dolzarb ahamiyatga ega. Shu bois, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2017-yil 19-sentyabrda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72–sessiyada so'zlagan nutqida “Bugungi dunyo yoshlari – son jihatidan butun insoniyat tarixidagi eng yirik avloddir, chunki ular 2 milliard kishini tashkil etmoqda. Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo'lib kamolga yetishi bilan bog'liq. Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o'z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratish, zo'ravonlik g'oyasi "virusi" tarqalishining oldini olishdir. Buning uchun yosh avlodni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, uning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasidagi ko'p tomonlama hamkorlikni rivojlantirish lozimz”- deb ta'kidlagan edi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoniga asosan “2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” va “Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili”da amalga

oshirishga oid chora-tadbirlar ham mamlakatimiz rivojlanishi uchun ahamiyatli bo'ldi. Mazkur jarayonlarda bevosita milliy va umuminsoniy qadriyatlarni rivojlantirish, yoshlar tarbiyasiga alohida e'tibor qaratish, yuksak ma'naviyatli shaxsni shakllantirish zarurati mavjudligiga e'tibor qaratilgan. Yuksak ma'naviyatli shaxsni shakllantirish va tarbiyalashda esa quyidagi milliy qadriyatlar muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekistonning yangi milliy g'oyasida milliy va umuminsoniy g'oyalar hamda qadriyatlar uyg'un o'z ifodasini topgan. Chunki dunyodagi har bir xalq va mamlakat insonparvarlik, ezgulik hamda bunyodkorlik g'oyalarini birlamchi biladi. Mamlakatimizning yangi milliy g'oyasi quyidagi bosh g'oya asosida birlashadi: "Milliy tiklanishdan – ilmiy yuksalish sari". Bu bosh g'oyaning mazmuni xalq hayotini, inson faoliyatini va davlat siyosatini milliy manfaatlar asosida yuksaltirishdan iborat. Shu tariqa hozirgi zamon O'zbekiston ta'lim tizimida milliy tarbiyaning mazmuni va mohiyati yangi milliy g'oyaga asoslanishi bilan xarakterlanadi. Milliy tarbiya umumpedagogika qonuniyatlariga asoslangan quyidagi omillarga tayanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020-yil yanvar oyida mamlakatimizning quyidagi g'oyalarga asoslangan yangi milliy g'oyasini e'lon qildi: 1) insonparvarlik; 2) ezgulik; 3) bunyodkorlik. Bu mutlaqo yangi asosdagi milliy g'oya bo'lib, uning ma'nosini quyidagilar tashkil etadi: Insonparvarlik – insonni qadrlash, uning sha'ni, g'ururi va huquqlarini ro'yobga chiqarish, insonga munosib yashash turmush sharoiti yaratib berish va davlat hamda jamiyatning faoliyatini inson omili asosiga qurish; Ezgulik – insonda va jamiyatda eng yaxshi hamda ideal g'oyalarni tarkib toptirish, inson manfaatlarini ro'yobga chiqarish, "Avesto"da ta'kidlanganidek inson va jamiyatda ezgu niyat, ezgu fikr hamda ezga amalni tarkib toptirish;

Ta'lim tizimining hozirgi kundagi rivojlanish bosqichi, bozor munosabatlarining jamiyat hayotida mustahkam o'rin olishi boshqaruvning ma'muriy-buyruqbozlik tizimida demokratik, iqtisodiy shakllariga o'tish bilan

tavsiflanadigan ta'lim tizimi boshqarish mexanizmining o'zgartirilishi zaruratini shart qilib qo'ymoqda. Bu nafaqat boshqaruv muammosini oldingi planga surib chiqaradi, balki boshqaruv subyektlari tomonidan uni amalga oshirish usullarini takomillashtirish, turli bo'g'inlardagi rahbarlarning boshqaruv faoliyatidagi mahsuldor faoliyatiy xususiyatlarni bashorat qilish va shakllantirish kabi muammolarni ham olg'a suradi.

Tadqiqodchi O.T.Abduganiyev talabalarda ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasini rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar orqali ilmiy va amaliy yondashuvlar tahlili asosida mazkur jarayoning amalga oshirishini ta'minlovchi pedagogik shart-sharoitlarni aniqlash imkonini o'rgangan.

- o'quv mashg'uloti va mashg'ulotdan tashqari faoliyatning pedagogik vazifasi sifatida individual yondashuvning barcha sohalari rivojlanishi;
- talabalarning pedagogik-psixologik xususiyatlari va shaxsiy sifatlarini rivojlantirishda ta'lim mazmunining imkoniyatlarini oshirish;
- talabada ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasini rivojlantirish jarayonida pedagogik ko'makni ta'minlash prinsipiga tayanish;
- o'quv jarayonida ijtimoiy loyihalash metodi orqali talabaning o'zini-o'zi rivojlantirib boruvchi imkoniyatlar tizimini yaratish;
- ta'lim muassasasining o'quv-tarbiya jarayoni va fuqarolik jamiyati qurishning faoliyati o'rtasidagi muvofiqlikni ta'minlovchi demokratik hayot uslublari tizimini rivojlantirish

Mazkur pedagogik shart-sharoitlarni umumiylikda biz individual xususiyatlar darajalari sifatida ifodaladik va uni rivojlantirish ko'rinishida aniqlashtirdik: (diagnostik, maqsadli, mazmunli, jarayonli va tahliliy) statistika orqali ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi rivojlanishining uchta daraja mezonining: zaruriy (ijtimoiy yo'nalish darajasi), optimal (ishonch darajasi) va maksimal (ijtimoiy xatti-harakat darajasi) tavsifidan iborat bo'lgan darajali sifatleri aniqlandi.

Yosh avlodni ma'naviy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, allomalarning o'giti, dono so'zlari, fikrlarini qadrlash, o'rganish, hayotda qo'llash yoshlarni fikr va dunyoqarashini kengaytiradi. Bugungi yoshlar – kelajak poydevori. Shunday ekan, ularni har tomonlama yetuk, komil, vatanparvar, yurt tinchligi va ravnaqi yo'lida fidokor bo'ladigan farzandlar qilib tarbiyalash zarur.

Talabalik davrida shaxslararo munosabatlarda muhim o'zgarishlar yuz beradi. Ular ko'proq shaxsiy va mazmunli o'zaro ta'sirga moyilligi, yuqori reflektivligi bilan ajralib turadi, hissiy tajribalar manbaiga aylanadi. Ushbu yoshda tushunish va hamdardlik, ishonchli munosabatlarni o'rnatish zarurati kuchayadi.

Tengdoshlar bilan muloqot alohida ahamiyatga ega bo'lib, shaxsiy rivojlanishning yetakchi omillaridan biriga aylanadi. Talabalik davrtida tengdoshlari bilan bo'lgan munosabatlar muxum ahamiyatga ega talabaning rivojlanishiga tengdoshlari xat tamonlamma ta'sir qiladi shunday ekan birinchi navbatda tengdoshlari va o'rtoqlarining qiziqishlari odob -axloqi yurush turushiga ta'sir etadi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning "Bizni hamisha o'ylantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so'z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog'liq. Bugun zamon shiddat bilan o'zgaryapti. Bu o'zgarishlarni hammadan ham ko'proq his etadigan kim – yoshlar. Mayli, yoshlar o'z davrining talablari bilan uyg'un bo'lsin. Lekin ayni paytda o'zligini ham unutmasin deya ta'kidlaydi. Zero inson bugungi va otmishini unitmaslik kerak va vatani asrab avaylab bugungi kun har – bir oniniga shukronalik keltirish darkor.

Dunyo mutafakkirlari va ulug' ajdodlarimizning bebaho ma'naviyati mahsuli bo'lmish pand-nasihatlari va dono fikrlari, ibratli so'zlari yoshlar tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etishi mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning ma'ruzalarida ham o'z aksini topgan. Jumladan, "Yuksak ma'naviyatli, zamonaviy bilim va kasb-hunarlariga, o'z mustaqil fikriga ega bo'lgan yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash biz uchun eng muhim masalalardan biridir" -deb ta'kidlanadi.

Har qanday davlatning tarixiy taraqqiyot yoʻlidan maʼlumki, yurtning jadal rivojlanishi, muayyan yutuqlarga erishishi, xalqning farovon boʻlishi oʻsha davlatda yoshlar taʼlim-tarbiyasi va kelajagiga beriladigan eʼtibor darajasiga chambarchas bogʻliq. Shu maʼnoda, Oʻzbekistonda yoshlar masalasi davlat siyosatining eng ustuvor yoʻnalishlaridan biri hisoblanadi.

Mamlakatda yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularga zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlarni yaratib berish borasida mustahkam huquqiy baza yaratilgan va bu tizim zamon talablariga hamohang ravishda takomillashtirib borilmoqda. Xususan, bugungi kunda Parlament tomonidan yoshlarga oid 40 dan ziyod qonun hujjatlari qabul qilingan boʻlib, 30 dan ortiq xalqaro huquqiy hujjatlar ratifikatsiya qilingan.

Prezident Sh.M. Mirziyoyev tomonidan insoniyat tarixidagi eng koʻp yoshlar qatlami bilan yashayotganimizni inobatga olgan holda BMT minbarida “Yoshlar huquqlari toʻgʻrisida”gi BMT konvensiyasini qabul qilish taklifini ilgari surilgani ham xalqaro hamjamiyat tomonidan iliq qarshilandi. Oʻzbekiston Respublikasining 2016-yil 14-sentyabrdagi OʻRQ-406-son “Yoshlarga oid davlat siyosati toʻgʻrisida”gi Qonunda[1] ham ramziy mazmun-mohiyat mujassam. Binobarin, aholisining yarmidan koʻprogʻi yoshlardan iborat boʻlgan mamlakatda yoshlarga oid davlat siyosatini izchil amalga oshirish, yosh avlodni har tomonlama yetuk va barkamol, intellektual salohiyatli, oʻz qatʼiy pozitsiyasiga ega, yurtda amalga oshirilayotgan islohotlarga befarq boʻlmagan, yurtning ertangi munosib kelajagi uchun daxldorlikka tayyor, maqsadga intiluvchan, sergʻayrat, vatanparvar, sadoqatli, komil shaxslar sifatida tarbiyalash Oʻzbekistonni dunyoning eng rivojlangan davlatlari safidan oʻrin olishining muhim omili ekanini mamlakat rahbari va hukumat yaxshi anglaydi.

Bugungi kunda taʼlim standartlariga asosan bakalavriat talabalarining bilimini, tafakkurini, ilmiy dunyoqarashini oshirishda oʻquv fanlari boʻyicha beriladigan bilimlarni chuqur va mustahkam egallab olishlari va ular dunyoqarashining shakllanganligi darajasida tizimli bilimlarga ega boʻlishi, davlat siyosatining dolzarb

masalalarini, ijtimoiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olishi e'tiborga olingan.

Milliy o'zlikni anglash jarayonida millat kelajagi bo'lgan yoshlarning o'rnini alohida ahamiyatga egadir. Chunki yoshlarimizning milliy o'zlikni anglashi ajdodlarimiz qoldirgan modiy va ma'naviy me'rosni, urf-odatlar, a'nanalar, qadriyatlarni o'zlashtirish bilan birga, ulardan milliy ma'nfaatlarni, Vatan taqdiri va millat taraqqiyoti uchun mustaqillik tuyg'ularining mustahkamlanishini ham ta'minlaydi. Shuning uchun ham Prezidentimiz bugungi kunda ma'naviy sohadagi vazifalarni belgilab berar ekan, komil inson tarbiyalab yetkazishni bu yo'nalishdagi asosiy faoliyatimiz bo'lishi zarurligini ko'rsatib beradi. U shunday deb yozadi "Bu sohadagi ishlarimiz provard maqsadi – imon-etiqodi butun, irodasi baquvvat erkin fuqaro ma'naviyatini shakillantirishdir. Ya'ni mustaqil dunyoqarashga ega, ajdodlarimizning bebaho me'rosi va zamonaviy tafakkurga tayanib yashaydigan barkomol shaxs - komil insonni tarbiyalashdan iborat".

Talaba-yoshlarmizning milliy me'rosimizning mukammal o'rganishlari millatimizning vujudga kelishi, rivojlanish tarixini, urf -odatlarimizning a'nanalarimizning va qadriyatlarimizning o'zlashtirishlariga katta etibor berayotganligi alohida ta'kidlash lozim bo'ladi.

Talaba-yoshlarmizning milliy ongida vatanparvarlik va millatparvarlik tuyg'ularining rivojlanib borishiga oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirliimiz tomonidan o'tkazilayotgan bir qator tadbirlar ham o'z ijobiy ta'sirini ko'rsatmoqda. Xususan vazirlik tomonidan 1995-yilda talabalar o'rtsida "Vatanni sevmok imondandir", "Vatan astonadan boshlanadi", "Ma'naviyat- qalbim quyoshi" va "Oilam- faxrim", "Ustozim- hayotim chirog'i" mavzusidagi ko'plab tanlovlar talabalarimizning ongi va ma'naviyatimizning boyishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Bizning fikrimizcha, talabalarning har tamonlama rivojlanishiga atrof-muhit va tengdoshlari juddayam katta ta'sir ko'rsatadi Biz, asosan, talabada shaxsning ijodiy fazilatlarini, o'rganilayotgan materialdan tashqariga chiqish ehtiyojlari va



imkoniyatlarini, o‘z-o‘zini rivojlantirish va uzluksiz o‘z-o‘zini tarbiyalash qobiliyatini shakllantirish zarurligidan kelibchiqamiz. Talabalarni komil inson qilib tarbiyalashda ularga koproq kitob o‘qishni maslahat berar edim. Talabalarga ta’lim berishda ularning shaxsiy fazilatlaridan tashqari ularning qiziqishlarini ham rivojlantirishimiz kerak. Umuman olganda, talabalar rivojlanishining eng muhim omili bo‘lib xizmat qiladigan kognitiv faoliyat umumiy ufqni kengaytirish, intellektual darajani oshirish zarurati bilan tavsiflanadi. Shunday ekan talabalarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda, biz ularning bilim faolligini samarali rivojlantira olamiz. Ikkinchisi talabalarni qiziqishlarini inobatga olgan holda ularga tavsiya berishimiz zarur.

### ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 14-sentyabrdagi O‘RQ-406-son “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonuni.
2. Umarova Zuhra Abduraxmanovna “Boshlang‘ich ta’lim” kafedrası o‘qituvchisi Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti. 12-b.
3. X.Sultonov, A.Rasulov, A.Axmedov, A.Alimov, X.Shayxova, M.Quronov, A.Umarov, L.Tangirov, “Ma’naviyat- asosiy tushunchalari” Izohli lug‘ati G‘ofur G‘ulom nomidagi nashriyot –manbaa ijodiy uyi. Toshkent:. 2009-yil. 759-b.
4. Muzayyamxon Farmonova “Qadriyatlar – ma’naviy kamolot asosi”. Ilmiy-uslubiy qo‘llanma 35 b.